



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 653 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umda	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdualilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжоновна	
O'zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	
Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	528
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan	535
Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu	



Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....	541
Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования	547
Усманова Мухлиса Сагдуллаевна	
Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....	555
Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich	
Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni	560
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari	565
Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия	570
А.И. Лесников, Д.В. Мамаева	
Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику	580
Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи	
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	586
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva Maxliyoxon Xayrullayevna	
Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari	591
Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li	
The main directions for improving innovative activities in agriculture	598
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi	605
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari	610
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar	615
Boymatov Xoliyor Qurbonovich	
Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan	621
Alimov Ilhomjon Ikromovich	
Проблемы и резервы развития пищевой промышленности в экспортном направлении.....	628
Ўролова Севара Бехзод кизи	
Оценка степени риска инновационной деятельности	634
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari.....	638
Maxkamova Sayyora Shokirovna	
Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	641
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Soliq ma'murchiligida nazorat funksiyasi va unda kameral soliq tekshiruvi hamda takomillashtirish yo'llari.....	648
Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li	



SOLIQ MA'MURCHILIGIDA NAZORAT FUNKSIYASI VA UNDA KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVI HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası
mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, soliq organlarining nazorat funksiyalariga alohida e'tibor qaratilib, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan birga o'rganildi. Soliq nazoratini samarali ta'minlash bo'yicha takliflar va xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Soliq ma'murchiligi, soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq nazorati, soliq auditi, sayyor soliq tekshiruvi, kameral soliq tekshiruvi.

Abstract: The article examines the ongoing reforms in the taxation system of our country, with particular emphasis on the control functions of tax authorities. It explores the theoretical perspectives of both foreign and local scholars. Proposals and conclusions for ensuring effective tax control have been developed.

Key words: Tax administration, simplification of the taxation system, tax control, tax audit, field tax inspection, desk tax inspection.

Аннотация: В статье рассматриваются текущие реформы в налоговой системе нашей страны, особое внимание уделяется контрольным функциям налоговых органов. Изучаются теоретические перспективы как зарубежных, так и отечественных ученых. Разработаны предложения и выводы по обеспечению эффективного налогового контроля.

Ключевые слова: Налоговое администрирование, упрощение налоговой системы, налоговый контроль, налоговая проверка, выездная налоговая проверка, камеральная налоговая проверка.

KIRISH

Soliq organlarining asosiy funksiyalaridan biri – bu soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni hisoblash va budjetga to'lovlarni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash ustidan nazorat olib borishdir. Soliq nazoratining samaradorligi esa bevosita soliq to'lovchilarning qonunchilik talablariga rioya etish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, jamiyatda soliq madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq bu jarayon uzoq muddatli bo'lib, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan subyektiv va obyektiv omillar, shuningdek, soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli bilan belgilanadi. Bunday yondashuv mamlakatda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning institutsional rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda davlat rahbari tashabbusi bilan mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga yo'naltirilgan. Aynan shu asosda soliq organlari "Soliqchi – tadbirkorga ko'makchi" tamoyili asosida faoliyat yuritmoqda. Biroq amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, ayrim tadbirkorlar faoliyatining qonuniyligini faqat soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish orqali aniqlash va qonun ustuvorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.



Shunday ekan, soliq nazorati faqatgina nazorat qilish vositasi emas, balki tadbirkorlik subyektlariga qonuniy faoliyat yuritishda ko'maklashish, ularga tushuntirish va ogohlantirish orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirish vositasidir. Mazkur maqolada soliq nazoratining turlari, xususan, kameral soliq tekshiruvi institutining amaldagi holati tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamajonov (2024) soliq tushumlarini oshirishda asosiy omil sifatida soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu jarayonda soliq madaniyatini yuksaltirish, normativ-huquqiy bazani soddalashtirish hamda soliq jarayonlarini avtomatlashtirishni takomillashtirish soliq tushumlari hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkin [2].

Isayev (2023) esa soliq nazoratining amaldagi shakllariga e'tibor qaratadi. Jumladan, u kameral va sayyor soliq tekshiruvlari, shuningdek, soliq auditi kabi nazorat shakllari soliq to'lovchilarning majburiyatlarni bajarish holatlariga qarab qo'llanilayotganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasiga ko'ra past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratilayotgani, bu esa soliq ma'murchiligini samarali amalga oshirishga xizmat qilayotgani alohida qayd etiladi [3].

J.J. Urmonov tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, soliq ma'murchiligi – bu davlat fiskal organlari tomonidan soliqlarning hisobga olinishi, nazorat qilinishi, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanishi va qonunlarga rioya etilishi ustidan tizimli boshqaruvni amalga oshiruvchi mexanizmdir [4].

A.V. Vahobov va A.S. Jo'rayevlar esa soliqqa oid qonunbuzarliklarni aniqlash va baholashda yalpi ichki mahsulot (YalM)dagi ularning salmog'ini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, soliqqa tortish obyektlarining kamaytirilgan holda ko'rsatilishi va buxgalteriya hujjatlaridagi soxtalashtirishlar kabi holatlar davlat moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq tushumlari bilan YIM o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, mualliflar soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha mavjud chora-tadbirlarni muntazam ravishda yangilab borish lozimligini ta'kidlaydi. Soliq jinoyatlarining ko'payishi davlatning moliyaviy resurslariga bosimni oshiradi va bu, o'z navbatida, davlatni alternativ moliyaviy manbalarni, xususan, tashqi va ichki qarz mablag'larini jalb etishga majbur qiladi.

Soliq nazoratining uzluksizlik tamoyili – ya'ni soliq qonunchiligiga rioya etilishini doimiy nazorat qilish, axborot to'plash, tahlil qilish va tendensiyalarni prognozlash mexanizmlarini mustahkamlash – dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Ushbu tamoyil soliq to'lovchilarning qonunbuzarlikka olib keluvchi xatti-harakatlarini barvaqt aniqlash imkonini beradi.

Mazkur darslikda soliq nazorati quyidagicha ta'riflanadi: bu – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash ustidan olib boriladigan tizimli nazorat faoliyatidir [5].

Klyuchisheva va Klyuchishevlar (2016) tadqiqotlarida esa soliq siyosatining innovatsion rivojlanishga ta'siri o'rganilgan. Ularning fikricha, korxonalarni soliqlar orqali rag'batlantirishning eng samarali vositasi – bu soliq imtiyozlaridir. Soliq yukining muvozanatli taqsimlanishi esa soliq to'lovchilarning real daromad manbalarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Samarali soliq siyosati esa, o'z navbatida, mintaqaviy xususiyatlar va ijtimoiy ustuvorliklarni inobatga olgan holda, fiskal yondashuvni muvozanatlashtiruvchi majburiy shartlar bilan boyitilishi kerak [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda soliq nazoratining shakllarini o'rganishda turli ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil (analiz), sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash (qiyoslash) kabi metodlar qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar chuqur o'rganilib, mavjud yondashuvlar asosida soliq nazoratining dolzarb masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, ma'lumotlar analitik yondashuv asosida qayta ishlanib, asosli xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 137-moddasiga muvofiq, soliq tekshiruvlarining quyidagi uch turi mavjud:

1. kameral soliq tekshiruvi;
2. sayyor soliq tekshiruvi;
3. soliq auditi.

Sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida soliq organlari profilaktika tadbirlarini, xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirish, nazorat-kassa texnikasi va to'lov terminallarining qo'llanilishini tekshirish,



shuningdek, soliq nazoratining boshqa turlarini ham o'tkazishga haqlidir.

Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq auditi faqat da'vo qilish muddati o'tmagan, ya'ni oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin. Yakuniy tekshiruvda esa soliq auditi bevosita tekshiruv yilidan avvalgi uch yildan ortiq davrni o'z ichiga olmasligi belgilangan [1].

2024-yil yanvar–dekabr oylari davomida o'tkazilgan soliq auditi natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarga ko'ra, yil davomida respublika bo'ylab jami 2 146 ta soliq to'lovchi tekshiruvdan o'tkazilgan. Bu esa umumiy soliq to'lovchi sub'yektlar soni – 520 563 ta – ning atigi 0,4 foizini tashkil etadi.

Tekshiruvlar natijasida aniqlanishicha, soliq to'lovchilar tomonidan jami 6 217,2 milliard so'mlik soliqlar budgetga hisoblanmasdan va to'lanmasdan qoldirilgan.

Bundan tashqari, 2024-yil davomida sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish bo'yicha soliq organlariga yuborilgan murojaatlar soni 99 128 tani tashkil etdi. Shundan 54 435 tasi takroriy murojaat bo'lgani yoki tekshiruv jarayoni davom etayotgani sababli rad etilgan. Qariyb 37 897 ta murojaat yuzasidan esa soliq to'lovchilarga nisbatan sayyor soliq tekshiruvi tayinlangan.

Shuningdek, soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar ichida eng muhimlaridan biri bu – kameral soliq tekshiruvi hisoblanadi. Soliq kodeksiga muvofiq, kameral soliq tekshiruvi – bu soliq to'lovchi (yoki soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyatiga doir soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjat va ma'lumotlar asosida o'tkaziladigan tahliliy tekshiruv shaklidir.

1-jadval. Kameral soliq tekshiruvlari bo'yicha statistik jadval 2023-yil yanvar-dekabr oylari davomida o'tkazilgan tekshiruv natijalari mln.so'm.

Hudud nomi	Tekshiruv tayinlanganlar (buyruq imzolangan)		Tekshiruv yakunlanganlar			shundan					
						Qayta hisobot (xabarnoma yuborilgan va talabnomadan keyin)		Undirilgan		Ortiqcha to'lov hisobidan qopangan	
	soni	risk summasi	soni	tayinlanga nga nisbatan %	risk summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Respublika jami	53 014,00	20 173 265,78	50 749,00	95,73	21 307 431,48	3029	362 447,88	16412	514 506,35	16412	453 918,14
Hududlararo inspeksiya	344,00	2 924 039,12	339,00	98,55	3 619 620,48	34	21 530,88	181	310 206,59	181	253 122,14
Qoraqalpog'iston Resp.	2 697,00	520 398,81	2 524,00	93,59	439 627,38	155	11 500,50	253	16 297,63	253	5 817,91
Andijon viloyati	5 380,00	1 535 677,29	5 295,00	98,42	1 450 733,10	253	18 584,06	2372	22 658,31	2372	7 849,72
Buxoro viloyati	3 978,00	924 598,69	3 753,00	94,34	733 099,30	250	12 950,83	993	11 989,78	993	17 185,05
Jizzax viloyati	2 294,00	297 738,22	2 164,00	94,33	348 680,49	57	7 164,08	72	996,76	72	468,88
Qashqadaryo viloyati	3 309,00	693 435,05	3 168,00	95,74	679 975,27	209	26 288,53	876	6 365,30	876	1 690,23
Navoiy viloyati	2 424,00	298 903,45	2 270,00	93,65	275 591,57	41	6 026,34	243	1 347,85	243	8 290,96
Namangan viloyati	3 911,00	1 065 847,67	3 763,00	96,22	1 222 776,09	147	52 171,47	742	5 511,47	742	6 159,50
Samarqand viloyati	5 286,00	1 707 237,56	5 087,00	96,24	1 635 525,95	312	17 394,96	2400	14 345,14	2400	10 730,55
Surxondaryo viloyati	4 266,00	786 454,93	4 018,00	94,19	782 844,03	159	14 514,34	502	7 984,48	502	3 348,56
Sirdaryo viloyati	2 023,00	227 390,44	1 908,00	94,32	236 782,38	109	12 462,95	598	7 892,48	598	3 735,71
Toshkent viloyati	4 932,00	2 770 780,11	4 821,00	97,75	3 259 101,71	209	35 682,99	1594	15 964,90	1594	10 148,99
Farg'ona viloyati	2 881,00	1 016 179,07	2 546,00	88,37	1 042 626,48	113	21 856,92	579	7 091,64	579	2 242,91
Xorazm viloyati	3 668,00	639 512,36	3 484,00	94,98	505 261,48	236	10 695,87	1253	9 452,59	1253	1 790,18
Toshkent shahar	5 620,00	4 764 214,84	5 608,00	99,79	5 074 738,35	745	93 623,15	3754	76 401,44	3754	121 336,84

2023-yil davomida jami 53 014 ta subyektda kameral soliq tekshiruvini o'tkazish bo'yicha buyruqlar rasmiylashtirilgan. Ushbu tayinlangan tekshiruvlarning 95,7 foizi yoki 50 750 tasi to'liq yakunlangan.

Yakunlangan tekshiruvlar natijadorligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, soliq tekshiruvi tayinlangan korxonalarining umumiy xavf summasi 20 173,3 milliard so'mni tashkil etgan. Tekshiruvlar yakuni bo'yicha esa 21 307,7 milliard so'm miqdorida soliqlar qo'shimcha hisoblangan.

Bu esa o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlarining samaradorligi 105,6 foizga teng bo'lganini, ya'ni xavf sifatida baholangan summadan 1 134,4 milliard so'm ko'proq soliqlar aniqlanganini anglatadi.

Shuningdek, tekshiruvlar natijasida soliq to'lovchilarga yuborilgan talabnomalarga javoban 3 005 ta soliq to'lovchi tomonidan 360,1 milliard so'mlik ixtiyoriy qayta hisobotlar taqdim etilgan. Biroq 16 869 ta korxona tomonidan ixtiyoriy qayta hisobot taqdim etilmagan yoki u asoslantirilmagan. Ushbu holatlarga nisbatan 4 466,4 milliard so'mlik soliqlarni hisoblash bo'yicha tegishli qarorlar rasmiylashtirilgan va natijada byudjetga 513,6 milliard so'm undirilgan.



2-jadval. Kameral soliq tekshiruvlari bo'yicha statistik jadval 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida o'tkazilgan tekshiruv natijalari mln.so'm.

Hudud nomi	Tekshiruv tayinlanganlar (buyruq imzolangan)		Tekshiruv yakunlanganlar			shundan					
						Qayta hisobot (xabarnoma yuborilgan va talabnomadan keyin)		Undirilgan		Ortiqcha to'lov hisobidan qopangan	
	soni	risk summasi	soni	tayinlanganga nisbatan %	risk summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Respublika jami	30 942	13 585 121,9	31 934	103,2	16 822 567,3	5 490	744 531,5	3 527	189 716,5	3 527	92 870,2
Hududlararo inspeksiya	690	3 453 583,3	694	100,6	2 764 227,4	210	148 036,5	143	80 465,8	143	41 297,0
Qoraqalpog'iston Resp.	1 800	372 313,6	1 927	107,1	313 032,1	300	23 543,6	40	1 070,4	40	303,4
Andijon viloyati	2 179	988 221,2	2 145	98,4	1 424 565,8	242	31 781,0	331	3 156,4	331	227,9
Buxoro viloyati	2 480	476 313,7	2 627	105,9	653 806,9	593	49 508,7	184	9 613,4	184	2 371,7
Jizzax viloyati	1 056	210 224,1	1 133	107,3	276 217,5	214	11 152,3	28	752,7	28	152,8
Qashqadaryo viloyati	2 109	325 206,7	2 280	108,1	529 977,9	543	38 294,5	303	7 625,2	303	2 431,9
Navoiy viloyati	1 028	178 870,1	1 122	109,1	282 541,2	177	18 099,2	79	1 037,4	79	132,9
Namangan viloyati	1 543	189 917,6	1 600	103,7	636 652,3	264	23 595,2	169	1 403,1	169	396,3
Samarqand viloyati	1 871	405 296,1	2 028	108,4	531 462,2	504	39 387,7	560	4 506,0	560	818,4
Surxondaryo viloyati	1 958	475 642,8	2 113	107,9	454 972,1	493	53 807,5	124	4 483,8	124	3 661,3
Sirdaryo viloyati	965	218 167,2	1 024	106,1	328 156,6	124	11 179,3	190	5 234,4	190	150,3
Toshkent viloyati	2 971	3 223 162,3	2 847	95,8	3 134 548,8	304	75 556,5	343	6 248,5	343	16 111,3
Farg'ona viloyati	2 308	323 364,6	2 576	111,6	755 211,6	519	66 271,0	117	4 078,2	117	163,6
Xorazm viloyati	1 393	143 574,2	1 529	109,8	253 757,3	306	9 033,9	202	3 304,8	202	161,3
Toshkent shahar	6 591	2 601 264,4	6 289	95,4	4 483 437,6	697	145 284,8	713	56 470,1	713	24 488,1

2024-yilda kameral soliq tekshiruvlarining natijadorligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliq organlari tomonidan jami 30 942 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarga kameral soliq tekshiruvi o'tkazilishi yuzasidan buyruqlar rasmiylashtirilgan. Ushbu buyruqlarning 31 934 tasi yakunlangan bo'lib, natijada 16 822,6 mlrd so'mlik talabnomalar rasmiylashtirilgan. Bu ko'rsatkich aniqlangan xavf summasiga (13 585,1 mlrd so'm) nisbatan 123,8 foizga yuqori bo'lsa-da, 2023-yildagi talabnomalar summasiga nisbatan 78,9 foizni tashkil etmoqda.

Shuningdek, 2023-yilda jami 19 874 ta soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasiga qayta hisobotlar yoki qarorlar asosida 4 826,5 mlrd so'mlik soliqlar kiritilgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 744,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 15,4 foizni (yoki -84,6 foizlik pasayishni) tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kameral soliq tekshiruvlarida samaradorlikning pasayishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri – bu tekshiruv natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlarning belgilangan tartibda yakunlanmasligi bilan bog'liq. Biroq yana bir muhim omil – Soliq kodeksining 138-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlardir. Mazkur o'zgartirishlarga ko'ra, kameral soliq tekshiruvlari doirasida quyidagi soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish taqiqlangan:

1. soliq to'lovchining hududiga kirish;
2. soliq to'lovchining hududi va binolarini ko'zdan kechirish;
3. soliq to'lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;
4. soliq to'lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo'yish.

Ma'lumki, kameral soliq tekshiruvi masofaviy tarzda – soliq to'lovchining joyiga chiqmagan holda o'tkaziladi. To'g'ri, bunday sharoitda soliq to'lovchining hududiga kirish yoki binolarini ko'zdan kechirish ehtiyoji yuqori bo'lmazligi mumkin. Biroq aniqlangan xavf summalarini asoslash uchun soliq organlariga hujjatlarni talab qilish huquqining berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq to'lovchilardan hujjatlarni masofaviy so'rab olish amaliyoti soliq organlari va soliq to'lovchilar tomonidan ortiqcha vaqt sarflanishining oldini oladi. Ayniqsa, xavf kriteriyalariga tegishli hujjatlarning taqdim etilishi kameral soliq tekshiruvlarining cho'zilishiga yo'l qo'ymaslik va aniqlik kiritish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Sababi, kameral tekshiruvlar odatda tashqi ma'lumot manbalariga asoslanadi va bu manbalar to'liq qamrovga ega bo'lmazligi mumkin. Shunday hollarda so'rovnoma asosan hujjatlar talab qilinishi tekshiruv natijalarining o'z vaqtida yakunlanishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, soliq ma'murchiligining nazorat funksiyasini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti va soliq to'lovchilar faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur. Shu bois quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:



Birinchidan, kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan korxonalardan tekshiruv bilan bog'liq hujjatlarni so'rab olish vakolatini soliq organlariga qayta berish zarur.

Ikkinchidan, kameral soliq tekshiruvi yakunlanmaguncha, soliq to'lovchilarning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'shilish (yoki ularning tarkibiga kirish) huquqini vaqtinchalik cheklash amaliyotini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-sonli Qonuni.
2. Mamajonov L.A. va boshq. (2024) Soliq nazorati samaradorligini oshirish // Science Promotion. – T. 10. – № 1. – B. 413–416.
3. Isayev F. (2023) Soliq tekshiruvlari: audit samaradorligi tahlili // Economics and Innovative Technologies. – T. 11. – № 1. – B. 394–401.
4. Urmonov J.J. (2018) Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Diss. avtoreferati.
5. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq. – 448 b.
6. Ключишева В.Г., Ключишев Д.А. (2016). Предпринимательство и его функции в современной рыночной экономике // В сб.: Актуальные проблемы исследования региональных рынков: сборник статей Всероссийской научной конференции.
7. Internet saytlari: www.lex.uz, www.norma.uz, www.soliq.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
